

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARI XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI RISK TURLARI

Ilmiy rahbar: **Sharipova Nigina Jorakulovna**
Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti o'qituvchisi
Qanatbayev Sultanbek Batirbekovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Bank ishi va audit yo'nalishi 221-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola bank xavfsizligini ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, bank biznesining iqtisodiy xavfsizligiga turli tarzdagi tahdidlar bank tizimining iqtisodiy xavfsizligi ko'rsatkichlari, Markaziy bank tomonidan banklarning moliyaviy manfaatlarning himoyalanganlik darajasi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda mamlakatdagi bank bozoridagi raqobat darajasi, Markaziy bank tomonidan bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish sifatining darajasi, davlat bank tizimining kapitallashuv darajasi, moliyaviy xavfsizlik indikatorlari, jumladan, byudjet defitsiti, mamlakat milliy valyutasining barqarorligi tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida Markaziy bank tomonidan bank tizimining iqtisodiy xavfsizligini yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan islohotlarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, bank biznesining iqtisodiy xavfsizligiga tashqi va ichki tahdidlar, bank tizimining iqtisodiy xavfsizligi darajasi ko'rsatkichlari, bank bozoridagi raqobat darajasi,

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi - davlat xavfsizligini ta'minlovchi iqtisodiyot tizimining alohida elementi hisoblanib, jamiyat va davlatni iqtisodiy sohadagi ichki, tashqi tahdidlar va xavflardan. insonni hayotiy ehtiyojlari va manfaatlarini himoya qilish tushuniladi. Milliy iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishini ta'minlashda bank sektori muhim o'rin tutadi. Bank tizimi pul resurslarining katta qismini nazorat qiladi, ularning harakatini, taqsimlanishini va qayta taqsimlanishini ta'minlaydi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarning paydo bo'lishiga, uning rivojlanishiga yordam beradi. Bank tizimining asosiy funksiyalarini lozim darajada bajarmaganligi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni buzadi va mamlakatning iqtisodiy va milliy xavfsizligiga asosiy tahdidlardan biri sifatida baholanadi

Har bir mamlakatning rivojlanish mavqe'i bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy risklar, halqaro bank amaliyotida pul oqimi, kredit va hisob operatsiyalari sohasida bo'lgan risklar bilan bevosita bog'liq. Bu risklarning paydo bo'lishi va ularning darajasi esa import yoki eksport qiluvchi davlatga yoki kontragent mamlakatlardagi siyosiy-iqtisodiy barqarorlikka bog'liq. Har bir mamlakatda iqtisodiy yoki siyosiy barqarorlikka asoslanib, shu mamlakatdagi iqtisodiy risk darajasini baholay olish chet el kapitali ishtirokida tashkil topgan qo'shma banklar va bosh litsenziyaga ega bo'lgan bank tashkilotlari uchun dorlzarbdir. Bank amaliyotida uning raxbariyati chet el kontragentlarining moliyaviy barqarorligiga noto'g'ri baho berish natijasida ko'pgina xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin. Shuning uchun biror bir davlat bilan uzviy iqtisodiy aloqani o'rnatishda, ayniqsa kredit va hisob-kitoblar bilan bog'liq munosabatlarni olib borishda, undagi iqtisodiy-siyosiy barqarorlikni tahlil qilib risk darajasini aniqlash lozim. Jahon amaliyotida shu maqsadda tavsiya etiladigan yo'llardan biri bu mamlakat iqtisodiy risklari hajmini tahlil qiluvchi BERI indeksidan foydalaniladi. Uning yordami bilan oldindan mamlakat iqtisodiy risklarining hajmi belgilanadi. Mamlakat iqtisodiy riskini bashorat qilish davlat qurilmasining tarkibi va sifat darajalarini tahlil qilishga, shuningdek amaliy ma'lumotlar va nisbatlarni o'rganishga asoslangan miqdor ko'rsatkichlariga tayanishi kerak.

Risklar tijorat banklarining faoliyatiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ayrim davrlarda ma'lum bir riskning tijorat banking faoliyatiga ta'siri favqulodda va kuchli bo'ladi. Bunga misol qilib, 1996 yilda bankrot bo'lgan Angliyaning "Beringz bank"ini keltirish mumkin. Mazkur bank o'zining Singapurdagi

filiali rahbarining hatti-harakatlari tufayli bankrot bo'ldi. Bunda portfel riski bankning faoliyatiga favqulodda va kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ya'ni, filial boshlig'i bank balansining passiv qismida turgan barcha bo'sh pul mablag'larini, qimmatli qog'ozlar portfelini diversifikatsiyalashni qo'pol ravishda buzgan holda, Yaponiya ko'poratsiyalarining obligatsiyalari va fyucherslariga investitsiya qildi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, Yaponiyaning Kobe shahridayuz bergan dahshatli zilzila natijasida Yaponiya ko'poratsiyalarining obligatsiyalari va fyucherslarining bozor bahosi keskin tushib ketdi. Buning oqibatida Beringz bank bankrot bo'ldi. Tijorat banklarida likvidlilik riskining chuqurlashishi bankning reputatsiyasiga va aktivlarining daromadlilikiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Likvidlilik riskining bankning reputatsiyasiga nisbatan salbiy ta'siri shunda namoyon bo'ladiki, bankda balanslashmagan likvidlilikni yuzaga kelishi natijasida to'lovlarning kechikishi yuz beradi. Bu esa, bankning mijozlar oldidagi reputatsiyasiga putur etkazadi. Likvidlilik riskining bank aktivlarining daromadlilikiga nisbatan salbiy ta'siri shundaki, tijorat bankining "Nostra" vakillik hisobraqamida pul mablag'larining to'planishi bank aktivlarining daromadlilik darajasini pasayishiga olib keladi. Chunki, tijorat banklarining "Nostro" vakillik hisobraqamlarining qoldiqlariga, odatda, foiz to'lanmaydi. Iqtisodiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan va ulaming bajarilishi ustidan nazoratni ham Markaziy bank amalga oshiradi. Iqtisodiy me'yorlar talabini bajarmagan tijorat banklari jarimaga tortiladi. Jarima miqdori esa, tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdoriga qo'yiladigan talab summasiga nisbatan belgilanadi. Hozirgi kunda aksiyadorlik-tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdoriga qo'yilgan talab 10,0 mln, yevro ekvivalentidagi summani, xususiy tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdoriga qo'yilgan talab esa, 5,0 mln. yevro ekvivalentidagi summani tashkil etadi. Har bir faoliyatni amalga oshirishda ikkilanish yoki xavf-xatar bo'lishi mumkin. Biroq ularni risk mazmunida ifoda qilib bo'lmaydi. Xavf-xatar deganda biz oldindan biron salbiy natija beruvchi yoki bironbir salbiylikka yoki zarar, talofatga olib keluvchi jarayon mavjudligini tushunamiz va biz qo'rquv, hadiksirash bilan shu hodisaga yondashamiz. Yuqoridagilarga o'xshagan ta'riflarni mahalliy iqtisodchilarimizning ishlarida ham uchratish mumkin. Undan tashqari oxirgi yillarda chop qilinayotgan ko'pgina mualliflarning ishlarida "risk" so'zini o'zbekchaga ag'darishga harakat qilinmoqda. Natijada hozirgi kunda turli mualliflar tomonidan "risk" termini turlicha nom bilan talqin qilinmoqda. O'zbekistonda birinchilar qatorida risk muammosi bilan shug'ullangan professor Sh.Z. Abdullayeva ushbu ta'riflar riskning tub mohiyatini ochib bermasligi va risk iqtisodiy kategoriya sifatida biror hodisaning, voqelikning amalga oshishi yoki oshmasligini ifoda etadi degan ta'rifni beradi. Professor Sh.Z. Abdullayeva va boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan riskka berilgan ta'riflarni tahlil etgan holda, risk va uning sinonimlari o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi jadvalda ifoda etishimiz mumkin.

birinchidan, xavf-xatar riskga nisbatan askariyat hollarda birlamchi tushunchadir. (albatta, ba'zi hollarda birlamchi xavf-xatardan keyin yana ikkilamchi xavf-xatar ham yuzaga kelishi mumkin); ikkinchidan, xavf-xatar darajasi past bo'lgan hollarda risk qilinadi;

uchinchidan, xavf-xatar va risk bir-biriga teskari proporsional bo'lgan jarayondir; to'rtinchidan, xavf-xatar darajasi (ko'lam) yuqori bo'lgan holda risk «0» bo'ladi. Biroq, «Bank risklari va kreditlash»¹² kitobi muallifi Sh.Z.Abdullayeva G.Panovanning yuqorida riskga berib o'tgan ta'rifiga qo'shilmagan va quyidagicha ta'kidlagan: «Bank amaliyotida risk har doim ham kutilmagan xodisa emas. Bank faoliyatining barcha turi risk bilan bog'liq. Bank shu faoliyat turi yoki operatsiya riskli ekanligini bila turib, shu operatsiyani amalga oshirishga qaror qiladi yoki amalga oshiradi va u barcha hollarda shu operatsiya natijasida yuqori daromad olishni rejalashtiradi. Shu sababli biz G.Panovanning bank riskiga bergan ta'rifiga to'la qo'shila olmaymiz». Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, olimaning bu fikrlarini men ham ma'qullayman.

«Bank ishi» kitobi muallifi I.R.Toymuhamedov esa bank riskiga quyidagicha ta'rif bergan: «Risk - bu ma'lum maqsadni ko'zlagan holda olib borilayotgan faoliyat natijasida bo'lgan ishonchsizlik, ba'zan qoniqarsiz tugashi natijasidagi yo'qotishlardan iborat jarayondir. Risklar bank faoliyatida o'lchash

mumkin bo'lgan ko'rsatkichdir va ular doim bankning bajarayotgan operatsiyalaridan olgan zarariga, yo'qotgan daromadiga teng bo'ladi» 15 .

Albatta, riskga borish esa, noaniqlikka majbur etadi. Noaniqlik esa ba'zi hollarda chuqur hisob-kitob qilinmagan bo'lsa, salbiy natijaga olib kelishi mumkin. Risk bilan noaniqlik tushunchasi mohiyati jihatidan bir - biridan tubdan farq qiladi. Iqtisodiy jarayonlarda risk bilan bog'liq ikki xil holat yuzaga kelishi mumkin. Birinchisi - bu noaniqlik, hisob-kitoblar chuqur qilinmagan hollarda bank o'z resurslarining bir qismini yo'qotishi, daromadlarini to'la to'kis ola olmasligi yoki qo'shimcha harajatlarning vujudga kelishi xavfi bo'lsa, ikkinchisi esa buning teskarisi, ya'ni ma'lum tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish natijasida ko'zlangan miqdorda foyda ko'rish imkoniyatidir. Bundan kelib chiqadiki, risk ma'lum miqdorda noaniqlikni o'z ichiga olsada, uning natijasi aniq bo'lib, undan aksariyat hollarda ijobiy natija kutiladi. Shu o'rinda quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin. Bank tizimining iqtisodiy xavfsizligini yaxshilash uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirilyapti, jumladan, Markaziy bank tomonidan bank muassasalari faoliyatini nazorat qilish sifatini oshirilmoqda va doimiy monitoring olib borilmoqda, inflyasion targetlash rejimining asosiy elementlaridan biri, bu pul-kredit sohasida qabul qilinayotgan qarorlarning ochiqqligi va bu boradagi shaffoflikning ta'minlanmoqda. Samarali kommunikatsiya siyosatining ishlab chiqilishi va pul-kredit siyosati sohasida qabul qilinayotgan qarorlarning keng jamoatchilikka o'z vaqtida va tushunarli tilda etkazilishi aholi va tadbirkorlik sub'ektlari inflyasion kutilmalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ichki valyuta bozorida likvidlikni doimiy ta'minlash maqsadida mamlakatimizda Market-meykerlik instituti joriy etildi va ichki valyuta bozorida 2 ta tijorat banki market meyker sifatida faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Market-meyker maqomini olgan tijorat banklariga beriladigan imtiyozlarga qaramasdan, ularning soni sezilarli ko'paymayapti. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining "market-meykerlar" sifatidagi faolligi hamda ularning valyuta kursini belgilashdagi roli oshirish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqarilishi zarurdir

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sharipova N. D., Asadova S. D. THE ROLE OF BANKS IN THE MODERN MONETARY SYSTEM //Procedia of Theoretical and Applied Sciences. – 2023. – T. 6. – С. 55-62.
2. Шарипова Н.Д., Чориев Я.А. СТРАХОВАНИЕ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management. -2023- T.2. - С. 92-99.
3. Sharipova N. D., Jurayev I. S. THEORETICAL FOUNDATIONS OF MONETARY POLICY// INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIONS IN ENGINEERING RESEARCH AND TECHNOLOGY. – 2023. -T. 10. -С. 171-173.
4. Sharipova N. D., Aliboyev L.Sh. THE IMPORTANCE OF ANTI-INFLATIONARY POLICY AND INFLATION TRADING IN UZBEKISTAN// INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT. -2023. -T. 10. -С. 92-94.
5. Коваленко Сергей Борисович, Швейкин Игорь Евгеньевич Кредитный портфель банка и его роль в предотвращении кредитного риска // Промышленность: экономика, управление, технологии. 2019. №1 (75). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kreditnyy-portfel-banka-i-ego-rol-v-predotvrascheniikreditnogo-riska>.
6. Омонов А.А., Қоралиев Т.М “Пул ва банклар” Дарслик. Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2019 й. – 461 б.
7. Маликова Дилрабо Муминовна, Бурханов Искандар Шухратович КРЕДИТНЫЙ ПОРТФЕЛЬ БАНКОВ И МЕТОДЫ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ИМ // JMВМ. 2023. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kreditnyy-portfel-bankov-i-metody-effektivnogoupravleniya-im>.